



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 6 - may

211-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

**Surxondaryo viloyat hokimining 2022 yil 2 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining “Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo‘llanilishini
soddalashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 25apreldagi
PF–115-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 284-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini
ta‘minlash haqida**

Surxondaryo viloyat hokimining 2022 yil 2 maydagi 284-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Surxondaryo viloyat hokimining 2022 yil 2 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo‘llanilishini soddalashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 25apreldagi PF–115-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 284-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik, ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

2022-yil 1-maydan boshlab bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo‘llashning quyidagilarni nazarda tutuvchi soddalashtirilgan tartibi joriy etilganligi;

nazarda tutilgan soddalashtirilgan tartibni muvofiqlashtirish, uning samarali tashkil etilishini ta‘minlash, tadbirkorlik subektlari orasida targ‘ib qilish maqsadida Davlat bojxona qo‘mitasi markaziy apparati tuzilmasida bojxona organlarining umumiy cheklangan shtat birliklari doirasida 8 ta shtat birligidan iborat Bojxona hududida tashqarisida qayta ishlash bojxona rejimini takomillashtirish bo‘yicha boshqarma tashkil etilganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari M.Tag‘oev:

"Termiz" erkin iqtisodiy zonasi hududida mavjud tayyor infratuzilmadan samarali foydalanilishi, yangi loyihalarni joylashtirilishi, bunda, qayta ishlash orqali elektrotexnika va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini “Urgut”, tayyor kiyim-kechaklarni

“Chust”, maishiy elektrotexnika mahsulotlarini “Navoiy” va “Qo‘qon”, farmatsevtika mahsulotlarini “Bo‘stonliq”, maishiy va sanoat kimyo mahsulotlarini “Angren” va “Chirchiq” erkin iqtisodiy zonalarida joylashtirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari, tuman Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i M. Tag‘oev, tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (J. Usmonov):

bojxona hududida qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan korxonalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ular ko‘rsatadigan qayta ishlash xizmatlari;

respublikaning asosiy talabi import hisobidan qoplanayotgan tayyor mahsulotlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xomashyo va materiallarning yangilab boriladigan ro‘yxatini Elektron kooperatsiya portaliga joylashtirib borilishi inobatga olinsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV